



XALQ OG'ZAKI IJODIDA TOPISHMOQLAR.

Mirzayeva Dilshoda Ikromjonovna

Farg'ona davlat universiteti,
Chet tillari fakulteti

Ingliz tili kafedrasini mudiri, Filologiya
fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Xoshimova Mashxura Shuxratjon qizi

Farg'ona davlat universiteti,

Lingvistika (ingliz tili) mutaxassisligi ikkinchi bosqich magistranti
E-mail: mashkhurakhoshimova909420gmail.com

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-May 2023 yil

Ma'qullandi: 05-May 2023 yil

Nashr qilindi: 08-May 2023 yil

KEY WORDS

topishmoq, folklor, xalq og'zaki ijodi, jumboq, shahar berish, bolalar folklori.

ABSTRACT

Ushbu maqolada barcha xalqlar adabiyotining ajralmas qismlaridan biri bo'lgan xalq og'zaki ijodi - folklor hamda uning asosiy janrlaridan biri bo'lgan topishmoqlarning folkloridagi beqiyos o'рни haqida so'z boradi.

Ma'naviyat kecha yoki bugun paydo bo'lib qolgan tushuncha emas, u asrlardan buyon xalqimiz bilan birga yashab, birga taraqqiy etib kelayotgan buyuk bir qadriyatdir¹. Ana shu ma'naviyatning eng ajralmas qismlaridan biri, uning shakllanishida asosiy ro'llardan birini o'ynovchi unsure bu folklore ya'ni xalq og'zaki ijodidir. Ushbu munosabat bilan A.N.Tolstoy shunday deb yozgan edi: Og'zaki adabiyotni xalq ko'ngilxushligining mevasigina deb o'ylash xato. U xalqning aqli va vijdonidir. U xalqning sobit ma'naviy qiyofasi va tarixiy xotirotidir". Albatta folklorida xalqning til imkoniyatlari, mushohada tarsi, ijodiy quvvati aks etgan bo'ladi. Uni o'rganish va tadqiq qilish esa anchayin murakkab va qiziqarli jarayonlardan biridir. Shu munosabat bilan biz ham ushbu ilmiy tadqiqot ishimizda xalq og'zaki ijodining eng qiziqarli hamda boy janrlaridan biri bo'lgan topishmoqlar ustida ishlashga, ularni ilmiy asoslarda tadqiq qilishga bel bog'ladik.

Har bir xalq ham hamisha yoshlarning ziyrak, yaxshi xotirali, o'tkir fikrlovchi, ham jismonan, ham ma'nan barkamol inson bo'lishini istagan va bu yo'lda jismni chiniqtirishga qaratilgan maxsus harakatli o'yinlar hamda aqlni charxlash uchun esa insonni teran fikrlashga chorlovchi turli jumboqlar aynan xalq tomonidan yaratilgan. Xalq dostonlari, ertaklarini o'qigan vaqtimizda voqealar rivojida asar qahramonlarining turli sinovli vaziyatlardan o'tishiga guvoh bo'lamiz. Bu sinovlarning ba'zilar jismoniy kuch talab qilsa, yana boshqa turi qahramonlarning zehni, ularning qanchalik dono hamda ziyrak ekanliklarini tekshiradi. Jumladan, shunday ertaklar bor-ki, ularda ma'shuqa qizlar turmushga chiqadigan yigitlari oldiga shaxmat o'ynash, jumboqli savollarga javob berish shartini qo'yadilar. Ular orasida dunyodagi eng og'ir narsa nima? Kim ertalab to'rt oyoqlab, kunduzi ikki, kechqurun uch oyoqda yuradi? Dunyoda to'rtta narsa yo'q, ularni ayting. Nima uchun daraxt soyasida

¹ M.jo'rayev, G'.Eshonqulov. Folklorshunoslikka kirish.Toshkent,Turon-Iqbol 2018

soyabon tutish kerak, kabi jumboqlar bor. Og'ir narsa filga yoki kitga o'xshaydi. Ammo savolning javobi ot. Chunki faqat ot yugurganda, yer larzaga keladi. Yoki odam go'dakligida to'rt oyoqlab, yoshligida ikki oyoqlab, qariganda uch oyoqlab, ya'ni hasa bilan yuradi. Dunyoda to'rtta narsa yo'q: osmonning ustuni, hovuzning qopqog'i, osh pichoqning qini, ko'rpaning yengi. Shuningdek, daraxt soyasida dam olayotgan odam qushlarning chiqindisidan asranish uchun soyabon tutadi kabi javoblarni berish kutiladi. Aslini olganda, bu sinovlarning hammasi o'ziga xos topishmoqlardan iboratdir. Bunday ijod namunalari esa xalq og'zaki ijodida maxsus janr – topishmoq janrini yuzaga keltirgan. Ko'p asrlik xalq donishmandligining durdonalari – topishmoqlar inson idroki, kuzatuvchanligi, poetik tasavvur qobiliyatini o'stiruvchi aqlning quvnoq o'yini, ma'naviy dam olish vositasigina bo'lib qolmay, ajdodlarimizning ruhiy olami, tarixiy o'tmishini bilishda o'ziga xos kalit vazifasini ham o'taydi. Ular tarixiy madaniyatning bebaho hujjatlaridir. Hayotni o'ziga xos badiiy idrok etish shakli bo'lgan topishmoq o'zbek folklorining ommaviy janrlaridan biridir. Inson va uni o'rab olgan olam topishmoqlarda ko'chimlar, o'xshatishlar, taqqoslashlar, qiyoslar, solishtirishlar, savollar vositasida o'ziga xos poetik shaklda aks etadi. Bu jihati bilan u insoniyat badiiy tafakkuri taraqqiyotida favqulodda hodisa bo'lib, unda obrazli zuhur etgan hayot parchasi topishmoqning javoblari orqali reallashadi. Janrning poetik tabiatiga xos bo'lgan bunday umumiy xususiyat barcha xalqlar topishmoqlariga taalluqlidir. Demak, u — xalqaro janr. Shu bilan birga, har bir xalqning topishmog'i o'sha xalq, hayot tarzining ifodasi sifatida o'ziga xos, original, jozibali va benazirdir.

Topishmoqlar dunyo xalqlari folkloridagi eng qadimiy kichik janrlardan biri hisoblanadi. Bu o'zbek topishmoqlariga ham xos xususiyatdir. Biroq — “kichik” atamasini nisbiy ma'noda qabul qilish zarur. Zero, xalq og'zaki ijodida shunday topishmoqlar borki, ularning mazmunini butun boshli ertak yoxud dostonga teng deb qarashimiz mumkin.

Topishmoqlar o'zida xalqning moddiy-madaniy hayotining ba'zi etnografik tomonlarini hamda tilning leksik va grammatik boyligini o'rganishda bir qancha muhim elementlarni namoyon qiladi. Rus xalqi orasida dekabr, yanvar oylarida, turkmanlarda navro'z bayrami oqshomlarida, o'zbek xalqida esa boshqa qardosh xalqlar singari kuz va qish fasllarining uzun kechalarida topishmoq aytish rasm bo'lgan. Qaysi bir xalqda bo'lmasin, topishmoq aytish aql va ziyraklik musobaqasi, zehnni o'tkirlash mashqi, ko'ngil ochish, o'yin-kulgu vositasidir.

Topishmoqlar, odatda, xalqning urf-odatlarini, ruhiyati, o'y-fikrlari hamda axloqiy-estetik qarashlarini o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi. Bu janr yer yuzidagi deyarli barcha millat va elatlar folklorida tarixan mavjud bo'lgan va hamon barhayot. O'zbek folklorida juda qadim zamonlardan hozirgacha va zamonlar osha o'z davriga moslashib rivojlanib kelayotgan bu janr “topishmoq”, “jumboq”, “topar”, “topmacha” “top-top”, ba'zan “matal” kabi atamalar bilan yuritilib kelingan. Xalq orasida topishmoqlar ko'proq bolalarning aqliy qobiliyatini o'stirib, ularni kuzatuvchanlikka, hayotni mukammalroq bilishga, sinchkovlikka, hozirjavoblikka o'rgatadi. Ammo topishmoqlarni folklorida faqat yosh bolalargagina taalluqli deb hisoblash to'g'ri fikr emas, chunki topishmoq aytish va topish musobaqalarida kattalar ham qiziqish bilan ishtirok etaveradilar. O'tgan zamonlarda topishmoqlarni kattayu-kichik qish faslining uzun kechalarini zerikmay o'tkazish uchun aytganlar. Hatto olim Z. Husainovning ma'lumot berishicha, uzun qish kechalarida urchuq yigirgan va olacha to'qigan xotinlar vaqtini xushchaqchaq o'tkazish uchun, Samarqand atrofida esa boshqa qishloqlardan to'ygga kelib qo'shni xonadonlarga bo'lingan mehmonlar o'zaro chaldirmoq (tez aytish), jumboq ya'ni

topishmoq aytishish urf-odatlarini bo'lgan. Bu esa o'z navbatida ma'lum bir hududda yashagan aholining orasida ma'lum va mashhur bo'lgan topishmoqlarning boshqa hududlarda yashovchi insonlar orasida yoyilishiga, janrning yanada boyishiga katta turtki bo'lgan va bu xalq og'zaki ijodi rivojlanishining o'ziga xos jihatlaridan biridir deb bimalol ayta olamiz. Topishmoq aytgan odamning topishmog'iga javob topilsa, u musobaqada yutqazgan, topilmasa g'olib chiqqan hisoblangan. Har ikki holatda ham mag'lub bo'lgan taraf yo g'azal aytgan, yoki biron hayvonga taqlid qilib ovoz chiqargan, yo qo'shiq kuylagan, yoki biron jismoniy ish qilgan: suv olib kelgan, qor kuragan, eshik supurgan va hokazo.

Topishmoq aytish musobaqasida yashiringan narsani aniqlash uchun bir necha savollar berish an'anasi ham bo'lgan. Javob axtaryotgan taraf aytuvchidan "joni bormi, yo'qmi?", "qattiqmi, yumshoqmi" "yeyiladimi?", "o'sadimi, usta yasaydimi?" kabi savollar berib narsa nomini topishga uringan. Ma'lumki, topishmoq aytishda shahar berish an'anasi bor. Javob topa olmagan taraf "shahar berdim" deb aytadi va bu orqali o'zining mag'lub ekanini tan oladi. Shahar so'zi arab tilidan olingan bo'lib, Z.Husayinovaning yozishicha, bu so'z e'lon qilish, mashhur qilish, ma'lum qilish ma'nolarini anglatadi. Demak, shahar berish so'zining asl ma'nosi topishmoq javobini topa olmagan odamni elga ma'lum qilish bilan izohlanadi. Z. Husainova aynan o'zbek topishmoqlarini to'plash va ularni xalq tilidan to'plab yozib olish maqsadida uyushtirgan maxsus ekspeditsiyasida Namangan viloyatida yashovchi Muborak Ubaydulla qizi bilan suhbat jarayonida yozib olgan bir matnida topishmoq topa olmagan odam qanday so'zlar bilan uyaltirilganini qayd etadi: Mag'lub taraf shahar bergan. G'olib taraf shaharni olgan va o'z javobini berishda shunday degan: «shahar, unda boru munda kel, kelib mening qoshimga yiqil, ikkalamiz ketaylik. Sen ham ketaberib, tap etib bir xaloga tushding. Men ham ketaberib, jarang etib bir tillaxonaga tushdim. Bir devona: «Hey, do'st», — deb keldi. Men bir olovkurak tilla chiqarib berdim, meni chol ko'chada alqab-alqab ketdi. Sen bordingu, bir olovkurak go'ng chiqarib berding, seni chol qarg'ab-qarg'ab ketdi. Men ham bir otga mindim, sen bir yag'ir eshakka minding. Kunjaradan non qilib eshakning yag'iriga kunjarani tegizib, yalab-yalab ketding. Men bordim shinni bilan murabboga nonni tegizib, yalab-yalab ketdim. Hay topmasang men topay, og'zingga katta bir tappini yopay. Uning o'zi....»²

Birovni kamsituvchi o'ziga xos yuqoridagi nutq bilan tanishgan odam topishmoqni topa olmagan kishiga qanchalar qattiq dashnom berilganiga amin bo'ladi. Undagi ot—eshak; yag'ir—shinni so'zlari tazod (qarshilantirish) tasvir vositasi sifatida keltirilgan. Topishmoq aytuvchi o'zining mavqeyi uni topa olmagan odamdan qanchalar baland ekanini qayta-qayta ta'kidlaydi. Uning ustiga bu gaplar bir uy odam o'rtasida aytilishini hisobga olsak, vaziyat yana murakkablashadi. Shuning uchun topishmoqlarning javobini topish insonning g'ururi, oriyati bilan bog'liq bo'lgan. Binobarin, g'alaba muvaffaqiyat, mag'lubiyat esa katta tashvish hisoblangan. Bu esa musobaqa ishtirokchilarini ko'p ma'lumotlarni yodda saqlashga, har bir so'zga e'tibor berishga, ayni paytda qiziq-qiziq savollar o'ylab topishga o'rgatgan. Ammo o'z o'rnida jumboq aytuvchi ham o'zi aytayotgan jumbog'ining javobini yaxshi bilishi kerak, zero "Ochuvini bilmay turib jumboq aytgan odam ham gunohkor" sanalgan³. Masalan, xalq orasida mashhur bo'lgan va aytilganda odamni anchagina o'ylantirib, fikrlashga undaydigan topishmoqlardan birini keltirsak

Oq sigir turib ketdi,

² Z.Husainova. O'zbek topishmoqlari.Toshkent,Fan 1966

³ Z.Husainova. O'zbek topishmoqlari.Toshkent,Fan 1966

Qora sigir yotib qoldi. (qor va yer)

Topishmoqda yashirilayotgan shaxs yoki narsaning bir necha xil belgilari yashirin, sirli holda beriladi va har bir topishmoqning zamirida topilishi lozim bo'lgan bir ma'no va "kim?" "nima?" so'roqlarida yashirin javob yotadi. Topishmoqni tinglayotgan yoki o'qiyotgan shaxslar topishmoqni shu so'roqlarga qarab, topishmoqda yashiringan narsani topishga harakat qiladilar. Biz yuqorida keltirgan topishmoqda ikkita obyekt mohirona tarzda o'ylab topilgan o'xshatishlar asosida yashirilgan. Bunda yer yuziga yoqqan qorning erib ketishi obrazli tarzda – oq sigirning turib ketishiga o'xshatilgan, yer yuzini qoplagan qor erigandan keyin yer qoladi, tabiiyki yer ya'ni tuproq qora rangdaligi bois "qora sigir" birikmasi bilan yer nazarda tutilgan. Birgina shu yuqorida keltirilgan topishmoqda istiora ya'ni jonlantirish san'atini qo'llashning mohirona uslubini ko'rishimiz mumkin. Albatta bizning har jihatdan boy bo'lgan folklorimizda bunday topishmoqlar minglab topiladi. Ularni o'rgangan vaqtimizda ajdodlarimiz qadim qadimdan ham dono, masalaga mantiqan yondashish qobiliyatini o'zida shakllantirgan teran fikrli xalq bo'lganligiga yana bir bor amin bo'ldik.

Hatto bolalar ham topishmoqdagi jumboqni bilishga, uni topishga juda qiziqadilar. Chunki bolalar uchun ham alohida topishmoqlar yaratilgan bo'lib, bu topishmoqlar shaklan va mazmunan quvnoq va qiziqarli, bo'yoqlarga boy bo'ladi. Masalan bolalar folkloridan quyidagi topishmoqni olsak:

"Qopcha,

Qopcha ichida uncha

Uncha ichida ustuncha" (Jiyda)

Bu topishmoqni tahlil qiladigan bo'lsak, uni judayam mohirona tarzda va aynan bolalar uchun tuzilganligiga amin bo'lamiz. Unda yashiringan narsaning uchta belgisi uchta istiora vositasida berilgan. Demak, yashirilayotgan narsaning shakli "qopcha"ga, uning ichidagi qismi esa "uncha"ga o'xshatilmoqda. Yana shu unning o'rtasida "ustuncha"si ham bor ekan. Yana shunga ham e'tibor qaratish joizki, istiora san'ati qo'llangan so'zlarning hammasiga "-cha" kichraytirish-erkalash qo'shimchasi qo'shilgan, bu esa bir vaqtning o'zida ham yashirilayotgan narsaning hajman kichik ekanligiga ishora qilsa, ikkinchi tomondan topishmoqning o'ziga hos quvnoq va jarangdor hamda qiziqarli eshitilishiga asos bo'lyapti. Buni eshitgan har bir bola bu mittigina narsa nima ekanligini bilishga qiziqishi tabiiy. Bu esa o'sib kelayotgan kelajak avlodning teran fikrli hamda ziyrak bo'lishga undashning oqilona yo'llaridan biridir. Bunday topishmoqlar har bir xalq folklorida o'ziga xos shaklda ifodalansada, asosiy maqsad bitta ya'ni yosh avlodning aqlini charhlash va ularni keng fikrli, dono inson bo'lishga undashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Z.Husainova. O'zbek topishmoqlari. Toshkent, Fan 1966
2. Topishmoqlar. O'zbek xalq ijodi, ko'p tomlik, T., 1983.
3. M.jo'rayev, G'.Eshonqulov. Folklorshunoslikka kirish. Toshkent, Turon-Iqbol 2018.
4. M.Saparniyozova. O'zbek xalq topishmoqlarida gap bo'laklari tartibi /"O'zbek tili va adabiyoti"/ 2005, 3s.
5. Umida Qobulova. Topishmoqlarning struktur tahlili /O'zbek tili va adabiyoti/, 2005, 4-son.
6. Nargiza Maxmudova, Khoshimova Mashkhura, The meaning of riddle in folklore.